

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

National and cultural features of brand names .....	589
<b>D.R.Ismoilova</b>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Qotillik" mikromaydoni.....	596
<b>X.P.Shodmonov</b>	
Idiostil va stilistik konvergensiya munosabatining lingvopoetik tadqiqi.....	601
<b>X.Matnazarova</b>	
Diskurs tenorida adresant rollarning lingvistik tahlili .....	606
<b>J.Q.Ismonaliyev</b>	
Zamonaviy o'zbek tilshunosligida fe'l va zamonlarning o'rganilishi .....	609
<b>M.A.Abdulimova</b>	
Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi o'xshatishlarning mazmuniga ko'ra turlari .	612



UDK: 821.512.133374

**ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI O’XSHATISHLARNING MAZMUNIGA KO’RA TURLARI****ТИПЫ СРАВНЕНИЙ ПО СОДЕРЖАНИЮ В ЭПОСЕ АЛИШЕРА НАВОИ “ФАРХАД И ШИРИН”****TYPES OF SIMILES ACCORDING TO THE CONTENT IN ALISHER NAVOIY’S EPIC “FARHAD AND SHIRIN”****Abduolimova Mumtozbegin Anvarjon qizi**   
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Navoiy asarlarida qoʻllangan oʻxshatish konstruksiyalarining oʻrganilishi, ularning til taraqqiyotida tutgan oʻrnini aniqlash kabi masalalar yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi oʻxshatish konstruksiyalarining oʻziga xos xususiyatlarini tahlil etish va Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida qoʻllangan oʻxshatish qurilmalarining lingvomadaniy jihatlarini ochib berish, qolaversa, oʻxshatish qurilmalari boʻyicha jahon tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarni oʻrganish, oʻxshatish konstruksiyalari haqida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ularga munosabat bildirishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida qoʻllangan oʻxshatishlar, Manzar Abdulxayming “Navoiy asarlarining izohli lugʻati” (Toshkent 2018)da tavsiflangan leksemalar olingan. Tadqiqot jarayonida lingvistik tahlil, tavsifiy, tasviriy, qiyoslash, leksikografik, semantik-stilistik va lingvostatistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Аннотация**

В данной статье освещаются такие вопросы, как изучение аналогичных конструкций, использованных в произведениях Навои, определение их места в развитии языка. Основная цель исследования состоит в анализе специфики аналогичных конструкций и раскрытии лингвокультурных аспектов аналогичных устройств, использованных в эпосе Навои “Фархад и Ширин”, а также в изучении исследований, проведенных в мировой лингвистике по аналогичным устройствам, для того, чтобы дать ответ на них, обобщив высказанные мнения о аналогичных конструкциях. В качестве объектов исследования взяты аналогии, использованные в эпосе Алишера Навои “Фархад и Ширин”, лексемы, описанные в “толковом словаре произведений Навои” Манзара Абдулхайра (Ташкент 2018). В процессе исследования использовались методы лингвистического анализа, описательного, описательного, сравнительного, лексикографического, семантико-стилистического и лингвостатического анализа

**Abstract**

This article highlights issues such as the study of similar constructions used in Navoi's works, determining their place in the development of language. The main purpose of the study is to analyze the specifics of similar structures and reveal the linguistic and cultural aspects of similar devices used in the Navoi epic “Farhad and Shirin”, as well as to study studies conducted in world linguistics on analog devices in order to answer them by summarizing the opinions expressed about similar structures. The analogies used in the epic of Alisher Navoi are taken as objects of research “Farhad and Shirin”, lexemes described in the “explanatory dictionary of Navoi works” by Manzar Abdukhair (Tashkent 2018). The methods of linguistic analysis, descriptive, descriptive, comparative, lexicographic, semantic-stylistic and linguostatic analysis were used in the research process.

**Kalit soʻzlar:** inkor oʻxshatishlar, kinoya oʻxshatishlar, satirik oʻxshatishlar, chogʻishtiruvchi oʻxshatishlar, grammatik belgili oʻxshatishlar, logik oʻxshatishlar, oddiy va tizmalı oʻxshatishlar, toʻliq, toʻliqsiz, vositasiz, sodda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket oʻxshatishlar.

**Ключевые слова:** отрицательные сравнения, иронические сравнения, сатирические сравнения, контрастные сравнения, грамматические сравнения, логические сравнения, простые и линейные сравнения, полные, самостоятельные, косвенные, простые, сложные, содержательные, разрозненные, серийные сравнения.

**Key words:** negative similes, ironic similes, satirical similes, contrasting similes, grammatical similes, logical similes, simple and linear similes, complete, to independent, indirect, simple, complex, content, disconnected, serial similes.

## KIRISH

O'xshatishlar ijodkor mahoratini namoyon etuvchi o'ziga xos uslubiy vosita sifatida badiiy nutqda muhim ahamiyatga ega. Ular shoirning individual obrazli tasavvur mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham o'xshatishlar nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lib, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shoir she'rdan ifoda etmoqchi bo'lgan badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda rang-barang o'xshatish konstruksiyalarini yaratadiki, bu o'xshatishlarning kutilmaganligi, ohorliligi o'quvchini rom etishi bilan birga, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat hamda xususiyat, predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi ham.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiy tilda qo'llangan o'xshatishlar ijobiy va salbiy ma'nolari bilan ham farqlanadi. Ijobiy ma'noli o'xshatishlar badiiy asardagi ijobiy qahramonlar portreti, harakterida beriladi. Ularning muhim bir belgi, xususiyati oy, quyosh, mevali daraxtlar va boshqa narsa, hodisalarning ijobiy belgi, xususiyatiga qiyoslanadi. Salbiy personajlar esa hayotdagi zararli, yoqimsiz narsalarga o'xshatiladi. O'xshatishlarning ijobiy va salbiy ma'no anglatishida ularning qiyoslanish obyektlari muhim rol o'ynaydi.

Demak, o'xshatishlar badiiy asar tilida saralanib qo'llanadi. Ijobiy qahramonlarga berilgan o'xshatishlar salbiy personajlarga, salbiy personajlarga qo'llangan o'xshatishlar ijobiy qahramonlarga nisbatan ishlatilmaydi. Ya'ni L.N.Tolstoy aytganidek, o'xshatish tasvirda tabiiy va haqiqiy vositalardan biri bo'lib, u juda aniq va oqilona bo'lishini talab qiladi. Aks holda o'xshatish butunlay qarama-qarshi harakat qilishi mumkin [1, 29].

## NATIJAR VA MUHOKAMA

Adabiy tildagi o'xshatishlar mazmuniga qarab **inkor, kinoya, satirik va chog'ishtiruvli** bo'ladi. Inkor o'xshatishlarda o'xshatiluvchi obyektga o'xshovchi obrazni qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan qiyoslanadi. Bunda inkor ma'nosini anglatuvchi *emas, yo'q* so'zlari qatnashadi: *Emas gar tog', bas shiddat qilib big', Netib gardung'a har dam yetkurub tig' (FSh)*.

Kinoyali o'xshatishlarda o'xshatiluvchi obyekt to'g'ridan to'g'ri o'xshovchi obraz bilan qiyoslanmaydi. Oldin o'xshatiluvchi obyektning xususiyatlari tasvirlanadi, keyin esa o'xshovchi obraz beriladi. Bu o'xshovchi obrazda mubolag'a ustun turadi: *Anga bu surma bo'lg'och qurratul-ayn, Nasib o'ldi maqomi "qoba qavsayn" (FSh)*, shoir bu baytda "qoba qavsayn" o'xshatishi orqali ikki yoy oralig'icha masofaga kinoya qiladi.

Satirik o'xshatishlarda ham kinoyali o'xshatishlardagidek mubolag'a, fantaziya ustun turadi. Satirik o'xshatishlarda biror salbiy obrazning portreti, xulq-atvori hajvga olinadi.

Chog'ishtiruv o'xshatishlarida o'xshatiluvchi obyekt bilan o'xshovchi obrazlar birikma yoki gap holda kelib bir-biriga chog'ishtiriladi. Bular ko'pincha *-sa, -gan, -day affikslari va o'xshamoq, barobar* so'zlari keladi: *Quy i kavkabni ko'rguzgay safodin, Kavokib aksi, tushgandek samodin (FSh)*.

O'xshatishning belgisiga qarab esa, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

**1. Grammatik belgili o'xshatishlar.** Bunda obyekt, obraz va belgilar grammatik ko'rsatkichi bilan mavjud bo'ladi. Uch belgidan birortasi ham tushib qolmaydi: *Ato ul durg'a chun nazzora qildi, Sadafdek og'zi kulmakdin yoyildi (FSh)*.

**2. Logik o'xshatishlar.** Bunda grammatik belgi ko'rsatkich bo'lmaydi. Lekin mazmunan "obyekt" va "obraz"lar bir-biriga mos keladi, ya'ni "obyekt" va "obraz" larning shaklan va mazmunan moslik belgisi obrazning o'zida bo'ladi: *Ki, yeti ul barida homily roz, Qo'linda bir buroqi barqparvoz (FSh)*. Bu baytdagi *barqparvoz* so'zi arabcha-forsa so'z bo'lib, chaqmoqdek uchadigan, yashinday yugurik degan ma'noni anglatadi [2, 48].

O'xshatish strukturasi ko'ra **oddiy** va **tizmali** bo'lishi mumkin. Oddiy o'xshatish terminida bir "obyekt" va "obrazli" o'xshatishlar ko'zda tutiladi. Tizmali o'xshatish deb, biz ikki va undan ortiq "obrazli" o'xshatishning mos kelishini aytamiz.

Badiiy adabiyot tilidagi o'xshatishlar qo'llanish jihatdan ikki guruhga bo'linadi: **1) an'anaviy (traditsion) o'xshatishlar; 2) individual o'xshatishlar** [1, 25-27].

1. An'anaviy o'xshatishlar xalqning jonli-so'zlashuv nutqidagi o'xshatishlar bo'lib, ular yozuvchi tomonidan o'zgartirilmagani holda badiiy asar tiliga olib kiriladi. Ularda ta'sirchanlik,

konkretlik xususiyatlari yaqqol gavdalanmaydi. Bunday o'xshatishlar kundalik nutqda ishlatilaverishi orqali o'zining obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlarini yo'qotgan bo'ladi.

A.F.Yefremov badiiy asar tilidagi o'xshatishlarni o'rganishga oid maqolasida shu narsaga e'tibor berib, rus tilining jonli-so'zlashuv nutqida qo'llanadigan o'xshatishlarni "stereotip o'xshatishlar" termini bilan nomlagan [1, 27]. *Yuzi ul mujdadin guldek ochildi, Qo'pub mehmonsarog'a azm qildi (FSh).*

2. Individual o'xshatishlar deb yozuvchining xalq tilidan mohirona foydalanishi orqali qo'llangan o'xshatishlarga aytiladi. Ularda emotsional-ekspressivlik, obrazlilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Badiiy asar tilida bunday o'xshatishlar, ko'pincha, muallif nutqi orqali beriladi va o'zining originalligi, konkretligi hamda kitobxon xayolida yo'qligi bilan ajralib turadi.

Umuman, individual o'xshatishda obrazlilik bilan emotsionallik o'zaro bog'langan aniq obrazda kuchli emotsiya bo'ladi. Individual o'xshatishlar yozuvchi tomonidan hayotiy haqiqatlarni sinchiklab tekshirishlari orqali ro'yobga chiqadi hamda tasvirlanayotgan obyektning nursiz, qorong'u, mavhum tomonlari kitobxon xayolida reallashadi, tiniqlashadi: *Qoshim mehrobini yod aylagan dam, Yangi oydek bo'lurmu qomating xamg' (FSh).*

O'xshatishda asosiy komponent o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz bo'lgani uchun, o'xshovchi obrazning o'xshatiluvchi obyektga munosabatiga qarab ikki guruhga ajratamiz: 1) old o'rinli o'xshatishlar; 2) so'ng o'rinli o'xshatishlar.

O'xshatishlarni tarkibiga ko'ra yana **to'liq, to'liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket** turlarga ajratish mumkin.

To'liq o'xshatishlarda qancha "obyekt" bo'lsa, shuncha "obraz" bo'ladi. Ya'ni "obyekt" bilan "obraz" teng bo'ladi: *Va gar ming Besutundek qilsang idrok, Yo'lida bir kesak, bal bir ovuch xok (FSh).*

To'liqsiz o'xshatishlarda esa bir "obyekt"ga "obraz" yoki undan ortiq "obraz"larning taqqoslanishiga yoki bir "obraz", ikki "obyekt" o'rtasida bo'lib, har ikkala obyektga tegishli bo'ladi:

Vositasiz o'xshatishlar o'xshatiluvchi obyekt bilan o'xshovchi obrazning o'zidagina iborat bo'ladi. Ularda o'xshatma belgi hamda o'xshatish ifodalovchi elementlar ham bo'lmaydi: *Vale bu davlatedur asru oliy, Erur mushkil anga yetmak xayoli (FSh).* Bularda o'xshatiluvchi obyekt ega, o'xshovchi obraz ot kesim vazifasida keladi [1, 29-30].

Sodda o'xshatishlarda o'xshatish komponentlari – o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatma belgi bittadan bo'ladi. Bularda qiyoslanayotgan narsa va hodisalarning soni hisobga olinadi: *Bu yanglig' o'tga' yondurmog'lig' oni, Kul o'lg'och ko'kka sovurmog'lig' oni (FSh).*

Murakkab o'xshatishlarda o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatma belgi ikkitadan bo'ladi: *Chekib Farhod un o'z timsoli yanglig', Yiqildi jismi jondin xoli yanglig' (FSh).*

Tarkibli o'xshatishlarda uchta va undan ortiq o'xshatiluvchi obyektga uchta va undan ortiq o'xshovchi obrazlar mos keladi: *Va lekin keldi chun Layli misoli, Qilay Majnun kibi ko'nglumni xoli (FSh).*

Uzilgan o'xshatishlarda o'xshatish komponentlari: o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatma belgilar bir gap ichida bo'lmaydi. Bunda o'xshatiluvchi obyekt bilan o'xshatma belgi bir gap ichida kelsa, o'xshovchi obraz ikkinchi bir gapni tashkil qilib, o'zi bilan o'xshatma belgi o'rnida o'xshatish ma'nosiga ega bo'lgan ayrim so'zlarni olib keladi: *Samandi sayridin ko'k tavsani lang, Quyosh ruxsori ollinda xijilrang (FSh).*

O'xshovchi obrazning o'xshatma belgisi ko'pincha o'xshatish ma'nosini anglatadigan o'xshamoq so'zi bo'ladi. Sintaktik yaxlitliklarda kelgan uzilgan o'xshatishlar odatda birinchi gapdan keyin kelib o'xshatiluvchi obyektни obrazli tasvirlaydi. Bunday holatlarda uzilgan o'xshatishlarning boshida ko'pincha *go'yo, xuddi* yordamchi so'zlar kelib, o'xshovchi obrazni kuchaytirib bo'rttirib keladi. Ayrim uzilgan o'xshatishlarda *go'yo* yordamchi so'zi o'xshatiluvchi obyekt bilan o'xshovchi obrazni ajratib, kuchaytiruv ottenkasini beradi hamda o'xshovchi obrazdagi *-day* o'xshatish qo'shimchasining ma'nosini ham o'zida olib keladi: *Birovkim qilsa olimlarg'a ta'zim, Qilur go'yoki payg'ambarg'a ta'zim (FSh).* Uzilgan o'xshatishlar sintaktik birliklar orqaligina bir butun ma'noga ega bo'ladi va o'zidan oldingi gapni xulosalash uchun xizmat qiladi [3, 125].

#### XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ketma-ket o'xshatishlarda o'xshovchi obrazlar birdan ortiq bo'lib, bir o'xshatiluvchi obyektни har tomonlama aniqlashga, oydinlashtirishga,

## TILSHUNOSLIK

tiniqlashtirishga qaratiladi. Bularda avval o'xshatiluvchi obyekt keladi. Ketma-ket o'xshatishlarda o'xshovchi obrazlardan oldin, keyin yoki ularning o'rtasida xuddi, va, yoki, go'yo, kabi yordamchi so'zlar kelib o'xshatishlarni bog'lashda, ma'noni bo'rttirishda xizmat qiladi: *Buyon go'yoki surmishdur takovar, Ki, gardidin ko'runmmas mehri xovar (FSh)*. O'xshatishni chegaralashda asosiy uch ko'rsatkich, ular grammatik tomondan tasnif etish, o'xshatishning badiiy asarlardagi roli va yozuvchining uslubiga bog'liq holda o'rganish masalasi muhimdir. O'xshatish strukturasi (material tarkibi) haqida gapirganda yana quyidagi struktural tiplar haqida ham gapirish mumkin. "O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli" sifatida nazmda ham, nasrda ham birdek ahamiyatga ega. Ayniqsa, mumtoz adabiyotda nazmni bezantirish uchun bu usuldan keng foydalanilgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т.: Фан, 1976, 88 б.
2. Манзар Абдулхайр. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. – Б. 560.
3. Umarova N. Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi (DSc) diss... – Farg'ona, 2021. – B. 269.
4. Umarova N.R., Abduolimova M.A. The importance of similar devices in Alisher Navoi's poetry. Volume 9 (06.2022) Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences [www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org) 68-71-bet.
5. A.Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2020.
6. Каримов С.А. Ўзбек тили услубшунослигининг ҳозирги босқичдаги муаммолари. Маърузалар матни. – Самарқанд, 2006.
7. Каримов С.А. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, 2010.
8. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бadiiy услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
9. Қўнғуров Р. ва б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1992. – Б. 97.
10. Алишер Навоий. Энциклопедик луғат. II жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016.
11. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 598 с.
12. Бердақ Юсуф. Навоий тили луғати. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 496 б.
13. Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.
14. Abduolimova M.A. Lisoniy vositalarning semiotik va antroposentrik tadqiqi. Filologiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Farg'ona (11.05. 2022) <https://doi.org/10.5281/zenodo.6528801> 149-152-bet.
15. Umarova N.R., Abduolimova M.A. O'xshatish konstruktsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari. "Oriental Art and Culture" ilmiy-uslubiy jurnali 3-son Qo'qon-2020. 347-351-bet.